UO‘K 94(575.1):330(021)

KASPIYORTI O‘LKASIDA YASHAGAN AYRIM TURKMAN URUG‘LARI HAQIDA MULOHAZALAR (XIX ASRNING IKKINCH YARMI)

Safarov Tolib Todjiyevich,
Buxoro davlat texnika universiteti ijtimoiy fanlar va jismoniy madaniyat kafedrasi dotsenti
Safarovtolib407@gmail.com
Orcid ID: 0009-005-1337-2975

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.19728522

Annotatsiya. *Xiva yurishida ishtirok etgan L.N.Sobolev hamda N.I.Grodekovlarning “Xiva xonligining strategik sharhi” nomli tadqiqotida Kaspiyorti o‘lkasining geografiyasi, topografiyasi, iqlimi hamda hududdda yashayotgan ayrim turkman urug‘larining o‘lka bo‘ylab joylashuvi, xo‘jaligi, ularning umumiy soni va o‘zaro munosabatlari to‘g‘risida qiziqarli ma’lumotlar tahlil qilinib ilmiy istemolga tortilgan. Ushbu maqolada Kaspiyorti o‘lkasida yashovchi turkmanlarning yovmut, taka va go‘klen qabilalarining turmush tarzi, xo‘jaligi egallagan hududlari, o‘zaro savdo iqtisodiy va maishiy aloqalari, shuningdek Xiva xonligi hukumatiga va bosqinchi rus hukumati zobitlari bilan olib borgan aloqalari xususida mulohaza yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *L.N.Sobolev, N.I.Grodekov, Kaspiyorti, etnik tarkib, qatlam, urug‘, Xiva xonligi, yovmut, taka, go‘klen.*

Аннотация. *В исследовании "Стратегический обзор Хивинского ханства" Л.Н. Соболева и Н.И. Гродекова, участвовавших в Хивинском походе, проанализированы интересные сведения о географии, топографии, климате Закаспийского края, а также о расположении, хозяйстве, общей численности и взаимоотношениях некоторых туркменских родов, проживающих на этой территории. В данной статье рассматривается образ жизни туркменских племен явмут, така и гуклен, проживающих в Закаспийском крае, территории, занимаемые их хозяйством, взаимные торговые, экономические и бытовые связи, а также их связи с правительством Хивинского ханства и офицерами захватнического русского правительства.*

Ключевые слова: *Л.Н. Соболев, Н.И. Гродеков, Закаспий, этнический состав, слой, род, Хивинское ханство, явмут, така, гуклен.*

Abstract. *In the study "Strategic Review of the Khiva Khanate" by L.N. Sobolev and N.I. Grodekov, who participated in the Khiva campaign, interesting information about the geography, topography, climate of the Transcaspian region, as well as the location of some Turkmen tribes living in the region, their economy, their total number and relationships were analyzed and used for scientific purposes. This article discusses the lifestyle of the Yomut, Teke, and Göklen tribes of Turkmens living in the Transcaspian region, the territories they occupied, their economic and domestic relations, as well as their relations with the Khiva Khaganate government and the officers of the Russian occupation government.*

Key words: *L.N. Sobolev, N.I. Grodekov, Transcaspian, ethnic composition, stratum, clan, Khiva Khanate, yammut, taka, koklen.*

Kirish. Rossiya imperiyasi tomonidan 1865-yilda Toshkent shahri egallangandan keyin bosib olingan hududlarni boshqarish maqsadida 1867 yil 11

iyulda podsho Aleksandr II ning farmoni bilan Turkiston-general gubernatorligi tashkil etiladi. 1868-1880- yillar davomida amalga oshirilgan harbiy istilolar natijasida dastlab ikki viloyatdan iborat general gubernatorlikka yana uch viloyat qo‘shiladi. XIX-asrning oxirlarida Turkiston general-gubernatorligi Sirdaryo, Yettisuv, Samarqand, Farg‘ona va Kaspiyorti kabi 5 viloyatdan iborat bo‘ldi. Turkiston general-gubernatorligining barcha hududi 1.779.618 chaqirimga teng bo‘lgan[1]. Rossiya hukumron doiralari Turkistonni imperiyaning tarkibiy qismiga aylantirish va xalqlarini ruslashtirish uchun barcha vositalarni ishga soladi. O‘lkadagi siyosiy, ma’muriy, iqtisodiy va madaniy islohotlar ana shu maqsadga qaratilgan edi. Rossiya imperiyasi hukumron doiralari Xiva xonligini bosib olish maqsadida rejalashtirilgan harbiy yurishlardan oldin xonlik tarixi, tabiati, etnografiyasi va etno-siyosiy tarixi bilan bog‘liq ko‘plab masalalarni o‘rganishni kun tartibiga chiqargan.

Adabiyotlar tahlili. Xiva yurishida ishtirok etgan L.N.Sobolev hamda N.I.Grodekovlarning “Xiva xonligining strategik sharhi” nomli tadqiqotida Kaspiyorti o‘lkasining geografiyasi, topografiyasi, iqlimi hamda hududdda yashayotgan ayrim turkman urug‘larining o‘lka bo‘ylab joylashuvi, xo‘jaligi, ularning umumiy soni va o‘zaro munosabatlari to‘g‘risida qiziqarli ma’lumotlar tahlil qilinib ilmiy istemolga tortilgan. Kaspiyorti viloyati Kaspiy dengizining sharqiy qirg‘oqlari bilan Buxoro amirligi va Xiva xonligining g‘arbiy chekkalari oralig‘idagi hududni egallab, shimolda Ural viloyatigacha, janubda esa markazi Krasnovodskda bo‘lgan Fors va Afg‘onistongacha yetib borgan, hudud kengaytirilib, 1881 yilda Ashxobod qurilgandan so‘ng poytaxt o‘sha yerga ko‘chirilgan. 1886 yilda boshqa O‘rta Osiyo viloyatlari qatori viloyat sifatida tashkil etilgan Turkiston o‘lkasiga tarkibiga kirgan[2]. Mazkur maqolada Kaspiyorti o‘lkasida istiqomat qilgan yovmut, taka va go‘klen urug‘lari bilan bog‘liq ma’lumotlarning ayrim jihatlarini yoritishni lozim topdik.

Tadqiqot usullari. Kaspiyorti o‘lkasida yashovchi turkmanlar uch qabilaga bo‘lingan: yovmut, taka va go‘klenlar. Yovmut va taka qabilalari o‘troq va ko‘chmanchi hayot tarzini oli borganlar. Kaspiy dengizi sohili, uning janubi-sharqiy qismida, Atrek va Gurgan daryolari bo‘yida joylashgan urug‘lar baliq ovlash bilan shug‘ullanganlar. Dengiz qirg‘oqlarida va yuqorida tilga olingan daryolarning quyilish joylarida yashaydiganlarning qayiqlari bo‘lib, Fors bilan va Astrobod dengiz hududi orqali ruslar bilan savdo qilganlar. Daryo bo‘ylarida yashaydiganlar esa dehqonchilik bilan shug‘ullanib, bug‘doy, tariq, arpa, sholi, paxta va kunjut singari ekinlarni ekkanlar. Gurgan daryosi bo‘yida chorvadorlik bilan ham mashg‘ul bo‘lib, e’tiborli jihati ko‘plab qoramollari bo‘lgani holda umuman tuyalari bo‘lmagan. O‘troq turkmanlar yangi va toza joylarga joylashish uchun o‘z o‘tovlari bilan qisqa

masofalarga, ko‘pincha ikki, uch chaqirim oralig‘ida ko‘chib yurganlar. Ko‘p holatlarda chorvador yoki ko‘chmanchi turmush tarzi olib brogan turkmanlar ekin ekmaganlar. Katta Balxan va Uzboy bo‘ylarida polizchilik bilan mashg‘ul bo‘lib qovun-tarvuz ekkanlar. O‘troq turkmanlarning deyarli har biri ko‘chmanchilarnikiga o‘xshash o‘tovga ega bo‘lgan. Ularning turmush tarzi bilan bog‘liq qiziqarli holatlar ham borki, masalan ota o‘troq, uning o‘g‘illari esa ko‘chmanchi bo‘lishi mumkin va aksincha ular orasida ba’zilar o‘troq, ba’zilar ko‘chmanchi hayot tarzini olib brogan[3]. Ko‘chmanchilarning o‘troqlarga munosabati erlarning miqdoriga, ularning ishlov berishga yaroqliligiga va umuman yer hamda suvdan olinadigan foydaga bog‘liq bo‘lgan.

Tadqiqot natijalari. Umuman olganda, barcha urug‘lar o‘troq yoki ko‘chmanchi tarzda yashagan. Ular o‘zaro yaqin aloqada bo‘lib, ayniqsa qishda ortiqcha mahsulotlarini ayirboshlash uchun bir-biriga juda yaqinlashganlar. Ularda yana bir qiziq jihat o‘troqlikdan ko‘chmanchilikka va aksinchaga o‘tish holatlari tez-tez uchrab turgan. Qo‘shnilar bilan kelishmovchiliklar, nikoh bilan bog‘liq muammolar masalan, qarindoshlari ko‘chmanchi bo‘lgan ayol o‘troqqa turmushga chiqsa, chorva yo‘qotilishi kabi omillar ko‘pincha ko‘chmanchini o‘troq hayotga o‘tishga majbur qilgan.

Yovmut turkmanlari ikki bo‘limga bo‘linadi: bayram-ali va qora-cho‘xa. Birinchisi Xiva xonligi hududida yashagan, ikkinchisi esa asosan Atrek va Gurgan daryolari bo‘yida joylashgan. Bu guruhning ko‘chmanchilari shimol va sharqda Qorabog‘az qo‘ltig‘ining janubiy qirg‘oqlarigacha, janubda ɔsa Kopetdog‘ tog‘lari etagigacha borib etgan. Qora-cho‘xa yovmutlari avlodlarga bo‘linib yashagan. Atrek daryosi bo‘yida ja’farbay, og‘a va ataboy, Gurgan daryosi bo‘yida ja’farbay, og‘a, ataboy, to‘az, tuyajli, ilali, badrali, emirt va boshqalar istiqomat qilganlar. Bundan tashqari, Kaspiy dengizi sohillarida ham bir necha ja’farbay qishloqlari bo‘lgan. Yana bir qiziq jihati shuki har bir qabila o‘z xavfsizligi nuqtai-nazaridan alohida yashagan, baxtga qarshi er kam va serhosil bo‘lmaganligi uchun og‘a va ataboylar aralash holda yashaganlar, shuning uchun boshqa turkmanlar ularni ko‘pincha bir nom bilan ya’ni og‘ataboy deb ataganlar[4].

Sanab o‘tilgan urug‘lar ichida ruslar bilan eng ko‘p to‘qnashuvlar ja’farbaylarda kuzatilgan. Ja’farbaylarning o‘troq qismi Xoja-Nefesdan Qora-Sengirgacha yashagan. Ko‘chmanchi qismi ɔsa Atrek va Gurgan oralig‘ida qishlab, yozda Balxan tomonga ko‘chib o‘tgan. Faqat oz qismi Balxan yoki Uzboyda fevral oxirigacha qishlab qolgan. Ja’farbay o‘troqlari taxminan 3000 ta ko‘chmanchilar ɔsa 7000 ta o‘tovdan iborat bo‘lgan. Eng mashhur qishloqlar: Xoja-Nefes - 650 o‘tov, Qora-Sengir - 550, Gemish-tepa – 100, Hasan-quli – 500, Chikishlar – 350, Cheleken oroli

- 350 Ogurjinsk oroli – 35 ta o‘tovni tashkil qilgan. O‘tovlar soni doimiy bo‘lmagan yozda Hasan-quli va Chikishlar qishloqlarida ko‘paygan, qishda esa kamaygan. Yovmut ja’farbaylarning ekin erlari asosan Atrek va Gurgan bo‘ylarida, ayniqsa Xoja-Nefes atrofida joylashgan bo‘lib, bu erlardan dengiz sohilidan uncha uzoq bo‘lmagan hududlardan boshlab, ichkariga, Oq-Qal’a qal’asigacha Gurgan bo‘yida, daryodan 50 vyorst (1vyorst:1.07 km) uzoqlikda cho‘zilgan[5].

Ja’farbaylar har yili 23 ming puddan (1 pud: 16.38 kg) ortiq bug‘doy va 1200 pudgacha guruch etishtirganlar. Ob-havo yaxshi kelganda hosil 20 barobar, yomon bo‘lganda ɔsa 5 barobarni tashkil qilgan. Ma’lumotlarga ko‘ra 1870–1871 yillarda aholining ehtiyojini qondirish uchun nafaqat ko‘chmanchilar, balki o‘troq aholi uchun ham olingan hosil etishmagan. Ja’farbaylarning butun jamiyatida Astrabod dengiz bandargohi boshlig‘i bergan ma’lumotlarga ko‘ra, kamida 500 ta turli hajmdagi qayiqlar bo‘lib, ulardan kamida 350 tasi egalariga yiliga o‘rtacha 675 rubl daromad keltirgan. Baliq ovlash bilan shug‘ullanuvchi qayiqlar egalarining sof foydasi esa 450 rublni tashkil qilgan. Cheleken orolidan fors portlariga neft va tuz tashuvchi qayiqlar ɔsa yiliga 900 rubl daromad keltirgan[6].

Ja’farbaylarning yana bir alohida guruhi og‘urjalilar deb nomlangan. Yovmutlar ularni Xiva, Buxoro va Qo‘qon xonliklaridan kelgan kelgindilar deb hisoblaganlar. Har bir og‘urjali yovmut jamiyatiga kirishda o‘ziga homiy tanlashi kerak bo‘lgan. Bu homiy uni har qanday vaziyatda albatta himoya qilishga qodir bo‘lmog‘i lozim bo‘lgan. Homiylik tizimida yovmut homiy og‘urjali ustidan katta hokimiyatga ɔga bo‘lib zarurat tug‘ilsa, uning mulkini ham egallashi mumkin bo‘lgan. Og‘urjali o‘z homiyidan shikoyat qila olmagan, ammo boshqa homiy tanlash huquqiga ega bo‘lgan. Qizig‘i shundaki, yovmutlar bu tizimdan deyarli foydalanmagan, lekin og‘urjalilar homiylik uchun ancha katta haq to‘lagan. Shu sababli ular orasida boy va yirik savdo bilan shug‘ullanuvchilar ko‘pchilikni tashkil qilgan. Nazariy jihatdan og‘urjalining hayoti yovmutniki bilan teng baholansa-da, amalda u ancha arzonroq qiymatga ega bo‘lgan[7].

Qora-cho‘xa qabilasiga mansub yovmutlarning jami o‘troq aholisi taxminan 7000 ta o‘tovdan iborat bo‘lgan. Shundan Kaspiy dengizi bo‘yida taxminan 2500 ta, Atrek daryosi bo‘yida 700 ta, Gurgan daryosi bo‘yida esa 3800 ta ga yaqin o‘tov mavjud bo‘lgan. Faqat Atrek daryosi bo‘yida turkmanlar ikki qirg‘oq bo‘ylab yashaganlar, qolgan joylarda esa ularning yashash hududi asosan Fors chegaralarida joylashgan bo‘lib, faqat Chikishlyar va Hasan-quli qishloqlarida taxminan 80 ta o‘tov mavjud bo‘lgan[8]. Ko‘chmanchi yovmutlarning qora-cho‘xa guruhi 12 mingdan 17 minggacha o‘tovdan iborat bo‘lgan. Ularning yozgi yaylovlari Uzboy atrofida, Katta Balxan tog‘ining shimoliy yonbag‘irlarida, Uzboy va Katta Balxan oralig‘ida hamda

Kyurentog‘ etaklarida joylashgan. Dakarbai va atagabai urug‘lari oldinda yurib, eng yaxshi yaylov joylarini egallaganlar, boshqa urug‘lar esa ularga ergashgan. Odatda ular qishki qarorgohdan bahor oxirida ko‘chib chiqib, aprel oyida yozgi qo‘nalg‘alarga joylashganlar. U erda ular guruh-guruh bo‘lib yashaganlar, ya’ni qishloqlarni tashkil etib bir necha o‘tovdan iborat kichik tarqoq guruhlar shaklida bo‘lganlar. Bu ularning boshqa urug‘lar bilan va boshqa ko‘chmanchi qabilalar masalan, takalar bilan munosabatlariga bog‘liq bo‘lgan[9].

Turkmanlar ijtimoiy tuzum jihatidan eng quyi pog‘onada turib, o‘z ustidan faqat nomigagina Fors va Xiva hukmronligini tan olganlar. Faqat ayrim urug‘lar Gurgan atrofida joylashib, Fors hukumatiga soliq to‘lab turganlar Umuman olganda, manbalarda turkmanlarning jamiyati o‘zaro nizolar hamda talonchiliklar uchun keng erkinlikka ega bo‘lganliklari qayd etilgan. “Ko‘chmanchi xalqda tartib va intizom bo‘lmaydi. Turkmanlardan podsho chiqmaydi, xuddi daraxtdan temir chiqmagani kabi”, - deb yozgan Xiva turkmanlari boshlig‘i Otamurodxon rus hukumatiga[10]. Shunga qaramay, ayrim turkman urug‘lari forslar bilan kurash olib borgan va Xiva xonligini ham qo‘rqitib turgan. Turkmanlar amalda Xivaga bo‘ysunmagan bo‘lsalar-da, barcha qabilalar xonni ma’naviy rahbar sifatida tan olgan va undan qo‘rqib yashagan, chunki u ularni o‘zaro urishtirishga qodir bo‘lgan.

Bundan tashqari, Xiva xoni turkmanlarga bug‘doy sotishni taqiqlashi mumkin bo‘lgan bu esa ularni ochlik xavfi ostida qolishga muqarrar qilishi tufayli uning buyruqlariga bo‘ysunishga majbur qilgan. Cho‘l hududida hech narsa etishtirilmaganligi sababli, turkmanlar nonni Fors va Xivadan olgan. Biroq Fors hududiga faqat u erda ko‘chib yuruvchi va soliq to‘lovchi qabilalar borib non olishi mumkin bo‘lgan, boshqalar ɔsa asosan Xivadan va oz miqdorda Ashur-adi orolidan oziq-ovqat olib bilgan[11]. Bayon qilinayotgan ma’lumotlardan ko‘rish mumkin-ki yovmutlar iqtisodiy va ma’naviy jihatdan Xiva xonligiga qaram bo‘lganlar. Bosqinchi rus ma’murlari yovmutlarni Xiva xonligiga qaramlikdan qutqarib ulardan o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanishga alohida e’tibor qaratganlar. Xususan, polkovnik Markozov, Krasnovodsk bo‘linmasi boshlig‘i bo‘lgan paytida, ularni bu qaramlikdan ozod qilishni rejalashtirgan va uning iltimosiga ko‘ra, Kaspiy dengizining sharqiy sohilidagi omborlardan turkmanlarga qarzga un berishga ruxsat etilgan. Ammo bu amaliyot uzoq davom etmagan va tez orada to‘xtatilgan. Dastlab, yovmutlar bo‘linma bilan do‘stona munosabatda bo‘lganlar va pul evaziga kerakli miqdorda tuya va qo‘y etkazib berganlar. Ammo shuni ham aytish kerakki, aholi polkovnik Stolyatov qo‘shiniga faqat qirg‘oqdan Balxan tog‘lari tomon yuk tashishda va takalar tomonga ayg‘oqchilik maqsadida yordam ko‘rsatgan. U turkmanlar bilan yaxshi munosabatlarni saqlashga doimo katta e'tibor bergan. Osiyoliklar bilan

munosabatlarda muvaffaqiyatning asosiy sharti o‘zgarmas rostgo‘ylik va qat’iyatni muloyimlik bilan uyg‘unlashtirishdir. “Bu o‘lkada rus hukmronligini o‘rnatishda asos barcha qabilalar aholisi farovonligi, adolat va qo‘shni davlatlar bilan tinch savdo aloqalarini rivojlantirish bo‘lishi kerak. Ana shular tarix oldida Osiyodagi harakatlarimizni oqlaydigan ɜng mustahkam asosdir”, - deb yozgan general-ad’yutant fon Kaufman devonxonasi 1868-yil 4-mayda[12]. Bu holatda adolat talab qilganidek, Krasnovodsk bo‘linmasi uchun turkmanlardan olingan barcha narsalar evaziga haq to‘langan, va polkovnik Stolyatov ularga saxiylik bilan pul bergan. U faqat shu yo‘l bilangina ko‘chmanchilarni o‘ziga og‘dirish mumkinligini yaxshi tushungan. Bugun biror xizmat uchun ko‘chmanchiga 100 rubl bersangiz, ertasi kuni u siz unga 1000 rubl berganingiz haqida gap tarqatadi. Bir necha kundan keyin esa uzoq sahrolarda “unga shunchalik ko‘p pul berilganki, hatto ularni tuyaga yuklashga ham qiynalgan” degan mish-mishlar tarqaladi[13]. Bu fikrlardan shunday talqin kelib chiqadi-ki rus zobitlari imkon darajasida har qanday yo‘llar orqali mahalliy xalqlarni ishonchiga kirib bosqinchilik yurishlari uchun o‘zlariga xavfsiz maydon hozirlashni asosiy maqsad sifatida belgilashga alohida e’tibor qaratganlar.

Manbalarda turkman qabilalari rus bosqinchiligiga qarshilik ko‘rsatishi mumkinligini ko‘rsatadigan juda ko‘p misollar keltirilgan. 1872-yil dekabrida Krasnovodsk bo‘linmasi Atrekdan Chikishlyarga qaytayotganida, Balxan yo‘lida erga uchta katta parallel chiziq qilich bilan chizilgandek tushirilganini guvohi bo‘ladilar. Yo‘l ko‘rsatuvchilar bu erda yashovchi turkmanlar ruslarga qarshi urush e’lon qilganini va bu chiziqlar qasam ma’nosini anglatishini aytadilar: “Agar ular ruslarni jangsiz o‘tkazib yuborsa, xotinlari harom bo‘lsin”[14]. 1873-yil boshida esa, turkmanlarga tuya ijarasi uchun yaxshi haq taklif etilganiga qaramay, aholi transport vositalarini berishdan bosh tortgan. Krasnovodsk bo‘linmasi to‘qnash kelgan yana bir turkman qabilasi takalar edi. Kyurentog‘ tog‘lari etaklari bo‘ylab oqar suv manbalari yaqinida joylashgan takalarning uzun qator qal’a-qo‘rg‘onlari cho‘zilib ketgan. Bu qo‘rg‘onlar bir-biridan 10–20, ba’zan 25 vyorst masofada joylashgan. Ular turkmanlarning doimiy yashash manzillari hisoblangan. Kyurentog‘dan oqib chiqadigan ko‘plab soylar tufayli tog‘ bilan qum oralig‘idagi hudud dehqonchilik uchun qulay bo‘lgan. Ekin maydonlari qo‘rg‘onlardan bir necha vyorst uzoqlikda joylashgan bo‘lib, ular suv chiqarish uchun ariqchalar bilan o‘ralgan kichik to‘rt burchak dalalardan ibora bo‘lgan. Yerga oddiy asboblar - belkurak, ketmon yordamida ishlov berilgan. Asosan arpa, bug‘doy, jo‘xori, kunjut, qovun, tarvuz va paxta ekilgan. Guruch ekilmagan, chunki u juda ko‘p suv talab qilgan. Yaxshi hosil faqat yog‘ingarchilik mo‘l bo‘lganda olingan, chunki soy suvlari barcha dalalarni sug‘orishga yetmagan[15]. Bu yerda bog‘lar ham bor. Yer umumiy emas, balki

alohida shaxslarga tegishli bo‘lib, ular uni sotishi ham mumkin bo‘lgan. Suv manbalari va tuproq sifati jihatidan takalar yerlari butun Turkmanlar yashaydigan hududlarda eng yaxshisi hisoblangan. Qo‘rg‘onlar yaqinida takalar yozda o‘tovlarini tiklab yashagan va dalada ishlagan. Tuya va qo‘ylar esa qumliklarda boqilgan. Otlar soylar bo‘yida o‘sadigan o‘tlar bilan oziqlangan. Qishda qo‘rg‘onlarda faqat jangga yaroqli erkaklar qolgan, oilalar esa chorva bilan shimolga qumlarga, Uzboy tomonga ko‘chib ketgan. Umuman olganda, taka qabilasi yarim o‘troq hayot kechirib katta-kichik qishloqlarda yashab, oqsoqollar va nufuzli kishilarga ma’lum darajada bo‘ysunganlar. Shu sababli ular hali mukammal bo‘lmasa-da, baribir ma’lum darajada tashkil topgan jamiyatni ifodalagan. Boshqa turkman qabilalari tarqoq va parokanda bo‘lganligi sababli, takalar ular orasida eng kuchli qabila hisoblangan. Yaxshi otlari bilan mashhur bo‘lgan takalar tez-tez Fors hududlariga bosqin uyushtirib, karvonlarni talab odamlarni asirga olganlar. Taka sahrosi kengligi va qattiq tabiati bilan tanilgan. Polkovnik Markozovning xabariga ko‘ra, 1872-yil oxirida u tomonidan takalarga berilgan zarba yovmutlarga shunchalik kuchli ta’sir qilganki, Krasnovodsk bo‘linmasida xizmat qilgan bir turkman Chikishlyarga yuborilib, bu mag‘lubiyat haqida aytganda, yovmutlar uni yolg‘on xabar tarqatgani uchun deyarli o‘ldirib qo‘yishgan[16]. Uni ishontirish uchun hatto pora berishga to‘g‘ri kelgan, chunki ular hech kim, hatto ruslar ham, takalarni mag‘lub eta olmaydi deb ishonishgan. Manbalarda ba’zi taka qo‘rg‘onlari va ulardagi o‘tovlar soni keltiriladi: Qizil-arvat 1000 o‘tov, Ko‘pde 200, Zau, Qizil-cheshme, Djepsi, Bami 300, Beurma 1500. Taka qo‘rg‘onlari loydan qurilgan. Masalan, Qizil-arvat qo‘rg‘oni to‘rtburchak shaklda bo‘lib, devorlari juda qalin va baland. Devor tashqarisida xandaq va mudofaa inshootlari mavjud. Ichkarida yana qo‘shimcha devor bilan mustahkamlangan. Bu qo‘rg‘onlar juda puxta qurilgan bo‘lib, hatto artilleriya zarbalariga ham ancha bardosh bera olgan. Armanit 1000 o‘tov, Sinche 200, Purche 300, Begerden 1000, Durun 1000, Karagan 1000, Ak-tepe 500, Megin 500, Yardji 1000, Karyz 100, Kellete 150. Ushbu mustahkamlangan joylarda taxminan 15 ming o‘tov bor deb hisoblangan. Ularning uchdan bir qismi Sekiz-ob bo‘yida joylashgan bo‘lib, u yer Yangi-qaladan Kyurentog‘dan chiqib kelib, bir necha irmoqlarga bo‘lingan[17]. Aynan shu irmoqlar bo‘yida bu mustahkamlangan joylar zich joylashgan. Go‘k-tepe, Yangi-qala, Kaplander, Bok-ru, Ahal, Igont, Goshe-qala, Keledjar, Yamshik, Ko‘n-ur-qala, Kordju, Bab-arab 300 o‘tov, Ak-tash-ayaq va Qara-tash-ayaq 6000, Gerre-qala, Kinyach 400-500 o‘tov, Gonchi 500-600, Bager 400-500, Mirov-300, Nusoy -200, Arman - 400, Koyli, Ashxobod shahri va qal’asi 4000, Anau 500. Gyavrs takalarning eng chekka yashash nuqtasi hisoblangan. Undan keyin 50–60 vyorst narida kurdlar yashaydigan hudud boshlangan. Gyavrsda

takalar mulklarini qo‘riqlash maqsadida doimiy ravishda 400 tagacha otliq saqlaganlar. Yuqorida zikr etilgan barcha taka urug‘i yashaydigan joylarda jami 40 minggacha o‘tov borligi taxmin qilingan[18]. Bundan tashqari, Kyurentog‘ etaklaridan tashqarida ham takalar Marvda, Murg‘ob daryosi bo‘yida yashaganlar. Umuman olganda, barcha taka qabilasi soni 100 ming o‘tovgacha deb qayd qilingan. Go‘klenlar эsa 8000 o‘tov deb hisoblangan. Ular Gurgan va Atrek daryolarining yuqori oqimlarida yashab, dehqonchilik, bog‘dorchilik va ipakchilik bilan shug‘ullanganlar. Ularning tabiiy imkoniyatlari yovmutlarga qaraganda qulayroq bo‘lib, asosiy daromad manbai bog‘dorchilik va ipakchilik hisoblangan. Go‘klenlar Fors hukumati tasarrufida bo‘lib, yovmutlarning ashaddiy dushmanlari hisoblanganlar[19].

Xulosa. Yuqorida bayon qilingan fikrlardan muxtasar xulosa qiladigan bo‘lsak Kaspiyorti o‘lkasida yashovchi turkmanlarning uch qabilasi yovmut, taka va go‘klenlar tarixning bir necha yuz yilliklarida mazkur hududda istiqomat qilib tabiiy va iqlimiy sharoitlardan kelib chiqib xo‘jalik faoliyatining turli sohalarida mehnat qilib yuksak madaniyat yaratishga muvaffaq bo‘lganlar. Ayniqsa Rossiya imperiyasining ushbu hududlarga nisbatan amalga oshirgan bosqinlari arafasida tashrif buyurgan tarixchi, etnograf va harbiy zobitlarning ma’lumotlari ushbu qabilalarning yashash tarzi, o‘zaro munosabatlarini tarixiy, etno-siyosiy hamda ijtimoiy jihatdan o‘rganish va ularning bosqinchi rus hukumatiga nisbatan tutgan salbiy munosabatlarini tahlil qilib xulosa chiqarishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Брегел Ю.Э. Хорезмские туркмены в XIX веке. Издательство восточная литература. 1961. С 441.
2. Куропаткин А. Туркмения и Туркмены. С-Петербург. Типография В.А.Полетике 1879. С 63.
3. Михайлов М. Туркмены. [«Литературная Библиотека». 1867. № 13 и 14]. Туркестанский Сборник. Том 16, стр. 47-57.
4. Стратегический обзор Хивинского ханства. Составили полковники генерального штаба Соболевъ и Гродеков. Издано на правах рукописи по распрожению туркестанского генералъ-губернатора, генералъ-адъютанта К.Н.Фонъ-Кауфмана. 1882. Туркестанский Сборник. Том 336, стр, 83-159.
5. Тарновский Г. Русские поселения в Закаспийской области. (Русская мысль. 1895. № 5). Туркестанский Сборник. Том 419, стр. 134-146. Статьи и заметки изъ русскихъ и иностранныхъ газетъ. Сборник составляется по поручению Туркестанского Генералъ-Губернатора. Ташкентъ. 1907.
6. Туркмения и туркмены. (Туркестанский курьер, 1910. № 53,61,63). Туркестанский Сборник. Том 541, стр. 31-37. Статьи и заметки изъ русскихъ и иностранныхъ газетъ. Сборник составляется по поручению Туркестанского Генералъ-Губернатора. Ташкентъ.